

R.N.Usmanov, T.A.Kuchkorov, A.B.Abdusalomov

KOMPYUTER KO'RISHI

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

KOMPYUTER KO'RISHI

(O'quv qo'llanma)

5A330501-Kompyuter injiniringi («Kompyuter tizimlarini loyihalash», «Amaliy dasturiy vositalarni loyihalash», « Axborot va multimedia texnologiyalari»)
mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan

TOSHKENT - 2018

UO'K:

KBK

M 58

Mualliflar: R.N.Usmanov, T.A.Kuchkorov, A.B.Abdusalomov, Kompyuter ko'rishi, T.: «Aloqachi», 2018, 173 bet.

Ushbu O'quv qo'llanma kompyuter injiniringi mutaxassisligi magistrlari uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada kompyuter ko'rishi fanining maqsad va vazifalari, kompyuter ko'rishi texnologiyasining amaliy tadbirlari bo'yicha atroflicha ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanma ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, birinchi qismida kompyuter ko'rish fanining kelib chiqishi haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan, xamda Matlab muxitining Image Processing Toolbox paketi asosida tasvirlarni turli tipdagi ishslash muammolari uslubiy misollar yordamida ko'rsatilgan. O'quv qo'llanmaning ikkinchi qismida tasvirlar va saxnalar OpenCV muxitida ishslash amaliyoti keltirilgan. Bunda tasvirlarni filrlash, chegaralarini topish, tasvirlarni xalaqitlardan tozalash kabi mavzular uslubiy misollar vositasida ko'rsatib o'tilgan.

UO'K:

KBK

M 58

Taqrizchilar:

A.Khaydarov

M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Amaliy matematika va kompyuter tahlili" kafedrasи dotsenti, f-m.f.n

O.J.Bobomurodov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti" kafedrasи mudiri, t.f.d

Kirish

Mazkur o‘quv qo‘llanma kompyuter ko‘rishi fanining maqsadi va vazifalari va kompyuter ko‘rishi texnologiyasining amaliy masalalar echishda qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Kompyuter ko‘rishi texnologiyasi o‘z ichiga tasvirlarni shakllantirish, diskretlash va kvantlashtirish, tasvirlar yorqinligini tekislash, tasvirlarni turli shovqinlardan tozalash va tasvirlarni tiklash kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida kompyuter ko‘rishi va mashina ko‘rishi texnologiyalari, ularning mohiyati, tarixi va qo‘llanilish sohalari haqida ma’lumotlar keltirilgan, o‘z navbatida, Image Processing Toolbox muhitida tasvirlarga raqamli ishlov berish asoslari yoritiladi. Mavzularni amaliy misollar asosida yoritilishiga katta ahamiyat berilgan va xar bir mavzu yakunida mustaqil echish uchun topshiriqlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanmaning ikkinchi qismi kompyuter ko‘rishi masalalarini Open CV paketi yordamida echishga bag‘ishlangan. O‘quv qo‘llanmaning birinchi qismida asosan kompyuter ko‘rishiga tegishli tasvirlarga raqamli ishlov berishning uslubiy muammolari ko‘rilgan bo‘lsa, ikkinchi qismda tasvirlarni tahlil qilish, tasvirlar ekvalizatsiyasi, sahnalardagi obyetlarni tanish va sahnalar tahlili kabi amaliy muammolarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5A330501-Kompyuter injiniringi (“Kompyuter tizimlarini loyihalash”, “Amaliy dasturiy vositalarni loyihalash”, “Axborot va multimedia texnologiyalari”) mutaxassisligi magistrlari uchun mo‘ljallangan.

1-qism. Kompyuter ko'rishiga kirish

1-bob. Kompyuter ko'rishning rivojlanish tarixi

Kompyuter ko'rishning qo'llanilish soxalari. Kompyuter ko'rishi tasvirlardan axborot olish imkonini beruvchi sun'iy tizimlar yaratish nazariyasi va texnologiyasidir. Kompyuter ko'rishi tez taraqqiy qilayotgan va turli soxalarda keng qo'llanilayotgan soxa sifatida e'tirof etilmoqda. Kompyuter ko'rishi soxasining paydo bo'lishi avvalgi asrning 60-70 yillariga to'g'ri keladi.

1.1.Kompyuter ko'rishi va mashina ko'rishi

Kompyuter ko'rishi deganda obektlarni topish, kuzatish va sinflashtirishga imkon beruvchi kompyuterlashtirilgan vositalar yaratish nazariyasi va texnologiyasi tushuniladi.

Kompyuter ko'rishi video ketma-ketliklarlarga tegishli ma'lumotlarni real vaqt rejimida ishlash va qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. Kompyuter ko'rishiga taaluqli nazariya va kompyuter ko'rishi modellari asosida kompyuter ko'rishi tizimlari yaratiladi.

Kompyuter ko'rishi tizimlariga misollar:

1. Jarayonlarni boshqarish tizimlari (sanoat robotlari, transport vositalari).
2. Video kuzatuv tizimlari.
3. Axborotlarni tashkil qilish tizimlari.
4. Obyektlar yoki atrof muxitni modellashtirish usullari.
5. Inson-kompyuter muloqoti tizimlari.
6. Xisoblash fotografiyası.

Kompyuter ko'rishini biologik ko'rishga nisbatan to'ldiruvchi deb qarash mukin. Biologiyada inson va turli jonivorlarning ob'ektiv borliqni ko'rish asosida idrok qilishlari fiziologik nuqtai nazardan o'rganiladi.

Kompyuter ko'rishi apparat va dasturiy qismlardan tashkil topadi va shu sababli kompyuter ko'rishi tizimi shakllantiriladi. Kompyuter va biologik ko'rish orasidagi o'zaro mutanosibliklar ikkala soxa rivoji uchun samarali bo'lib xisoblanadi.

Kompyuter ko‘rishi quyidagi bo‘limlarga bo‘linadi:

- Xarakatlarni qayta tiklash;
- Xodisalarni topish;
- Kuzatish;
- Timsollarni idrok qilish;
- Tasvirlarni tiklash.

Kompyuter ko‘rishi sun’iy intellekt soxasining muxim bo‘g‘ini bo‘lib robotni biror muxitga ko‘chirish vositasida mexanik xarakatlar bajaruvchi tizimni rejalashtirish va bunday tizimlarda echimlar qabul qilish bo‘lib xisoblanadi. Bunday tizimlarning asosi kompyuter ko‘rishi tizimlari tarafidan kiruvchi video ma’lumotlarni, video sensor kabi yetkazib beruvchi va ularga ishlov berish asosida muhit haqidagi yuqori darajali axborot berish bo‘lib xisoblanadi.

Kompyuter ko‘rishi texnologiyasi turli fanlar bilan uzviy bog‘langan, jumladan, kompyuter ko‘rishi asosida obyektlar sirtidan elektromagnit nur qaytishi va uning tasvir datchigi orqali o‘lchanishi va shu taxlid video ma’lumotlar xosil qilishnishi jarayonlarining fizikasini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonlarni fizikaning optika va qattiq jism fizikasi bo‘limlari o‘rganadi. Tasvirlarning murakkab datchiklar vositasida o‘lchash masalasi tasvirlarni shakllantirish jarayonini to‘la tushunush uchun kvant mexanika soxasidan xabardor bo‘lishni taqazo etadi ,shuningdek, fizikaning o‘lchamlarga doir turli muammolari kompyuter ko‘rish asosida echilishi mumkin. Kompyuter ko‘rishida muxim rol o‘ynayotgan fan soxasi bo‘lib, neyrobiologiya fani hisoblanadi. Keyingi yuz yillikda inson va hayvonlar ko‘zi, nevronlari va miya tuzilishiga vizual tasir qiluvchilar ustida katta tadqiqotlar olib borildi. Bunday tadqiqotlqr natijasida biologik tizimlarning turli murakkablilik darajasida faoliyatini modellashtiruvchi sun’iy tizimlar yaratildi. Bundan tashqari kompyuter ko‘rishi soxasiga tegishli ko‘pgina usullarning kelib chiqishi biologik asosga ega. Kompyuter ko‘rishi bilan bog‘langan yana bir muxim soxa ikki va uch o‘lchovli signallarga ishlov berish bo‘lib xisoblanadi. Shu bilan birga bir o‘lchovli signallarga ishlov berish algoritmlarning imkoniyatlari ikki yoki uch o‘lchovli signallarga (tasvirlarga)


ishlov berishda cheklanganligini ta'kidlash lozim. Tasvirlarga ishlov berishda statistik usullar (tasvir yorqinligini o'rganishda), affin geometriyasi (tasvirlarni ko'chirish, masshtabini o'zgartirish, burish) kabi fanlar imkoniyatlaridan foydalilaniladi. SHu o'rinda tasvirlarga raqamli ishlov berish yoki tasvirlarni taxlil qilishda odatda ikki o'lchovli tasvirlar yoki uch o'lchovli tasvirlar qirqimlari taxlil qilinadi. Tasvirlar kontrastini oshirish, tasvirlardagi chegaralarni axtarish, tasvirlardagi xalaqitlarni yo'qotish, tasvirlar ichida affin shakl almashtirishlar o'tkazish kabilalar tasvirlarga raqamli ishlov berishning mazmunini belgilaydi.

Keltirilgan amallar tasvir mazmunini o'zgartirmaydi.

Kompyuter ko'rishi tekislikga proeksiya qilingan uch o'lchovli saxnalar bilan ish ko'radi. Bunda bir yoki bir nechta tasvirlar vositasida uch o'lchovli saxnalar tuzilishi xaqida yangi ma'lumot olishga imkon yaratiladi.

1.2.Kompyuter ko'rishining amaliyatga tadbiqlari

Kompyuter ko'rishi masalalarini umumiylarda quyidagicha ifodalash mumkin.



1.1-rasm. Kompyuter ko'rishi tizimining funksiyalari.

1.2.1.Timsollarni aniqlash

Kompyuter ko‘rishi, tasvirlarga ishlov berish va mashina ko‘rishidan klassik masala-videooma’lumotlar ichida biror aloxidalikka ega bo‘lgan obyekt, aloxidalik yoki faollikni aniqlash masalasi yotadi. Agar bu masala tasodifiylakdan xoli bo‘lsa, oson echilar edi, biroq tasodifiy xolatlarda tasodifiy ob’ektlarni aniqlash murakkab va etarlicha echilmagan masalalar sirasiga kiradi.

Mazkur misollarni echishda mavjud usullarning imkoniyati cheklangan bo‘lib, oddiy obyektlar (masalan, ko‘pyoqlilar), inson yuzi, bosma yoki qo‘lyozma belgilar, aniq yoritilganlik, fon va vaziyatda obyektning kameraga nisbatan joylashuvi kabilar hisobga olinadi.

Timsollarni aniqlashning turli tushunchalari mavjud bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

- Timsollarni aniqlash: saxnaning ikki yoki uch o‘lchovli tasviridan bir yoki birnechta, avvaldan berilgan yoki o‘rganilgan obyektlar yoki ob’ektlar sinfi aniqlanishi mumkin;
- Identifikatsiya: ob’ektning individual nusxasi aniqlanadi, masalan, aniq bir insonning yuzi yoki barmog‘i izlari;
- Topish: video ma’lumotlar ma’lum shart mavjudligi nuqtai nazardan tekshiriladi. Masalan, meditsina tasvirida muxim bo‘lgan noto‘g‘ri xujayra yoki to‘qimalarni aniqlash.

Shu bilan birga, timsollarni aniqlashtirishiga doir bir nechta maxsus masalalar mavjud:

- Tasvirlarni mazmuniga mos qidirish: tavirlarning katta to‘plashidan, ma’lum mazmunga ega bo‘lganligini topish. Tasvir mazmuni turlicha ifodalanishi mumkin, masalan o‘xshashlikka oid terminlar orqali, yoki turli xil yuqori darajali qidiruv kriteriyalari(mezonlari)ga asoslangan terminlar asosida.
- Vaziyat (joylashuv) taxlili. Ma’lum obyektning kameraga nisbatan joylashishi yoki yo‘naltirilishini aniqlash.

- Xarakat. Bunda video ma'lumotlarga ma'lum nuqtalar yoki obyektlar xarakatini aniqlash maqsadida ishlov beriladi. Masalan obyekt (odamlar, mashinalar) xarakatlarini kuzatish.

1.2.2. Tasvirlar va sahnalarni tiklash

Saxna yoki video ma'lumotlarni ikki yoki undan ko'p tasvirlaridan foydalananib saxnaning uch o'lchovli modelini tiklash masalasi qo'yiladi.

Tasvirlarni tiklash masalasi odatda tasvirdan xalaqitlarni (datchikdan kelayotgan, ob'ekt xarakatining noaniqligi va x.k) yo'qotish(kamaytirish).

Tasvirlarni xalaqitlaridan tozalashda turli filtrlar foydalilanadi, masalan past yoki o'rta chastotali filtrlardan.

Xarakatlarni yo'qotishning yuqori darajasi – video ma'lumotlarni dastlabki taxlil qilishda turli chegaralarni aniqlash va filtratsiya jarayonini ana shu ma'lumotlarni intellektual tahlili asosida amalga oshiriladi.

Kompyuter ko'rishning muxim qo'llanilish soxalaridan biri meditsinaga oid tasvirlarga ishlov berishdir. Mazkur yo'nalihsning asosida patsientlarga meditsina tashqisi qo'yishda videoma'lumotlardan axborot olish yotadi. Ko'p hollarda, videoma'lumotlar mikroskopiya, rentgenografiya, angiografiya, ultratovushli tadqiqotlar va tomografiya orqali olinadi. Video ma'lumotlardan olinadigan axborotga misol tariqasida, organlar razmerlarini aniqlash, aterosklerozni qayd qilish va h.k.larni keltirish mumkin. Sanoat, kompyuter ko'rishi keng qo'llaniladigan soha bo'lib hisoblanadi. Bunda kompyuter ko'rishi vositasida olinadigan axborot ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilishda ishlatiladi. Masalan, ishlab chiqarilayotgan detallar sifatini nazorat qilish, detallar holati va yo'nalihsini o'lchash va h.k.

1.2.3. Mashina ko'rishi tushunchasi

Mashina ko'rishi asosan ishlab chiqarishda qo'llaniladi, masalan avtonom robotlar , vizual tekshirish va o'lchash tizimlari. Bunda real vaqtda robotlar va ma'lumotlarga ishlov berish va boshqaruv tasvirlar datchiklaridan olingan tezkor ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Kompyuter ko'rishiga ta'lulqli yana bir

muxim tushuncha vizualizatsiya deyiladi. Bu tushuncha tasvirlarni shakllantirish, ishlov berish va taxlil qilishni o‘z ichiga oladi. Meditsinada qo‘llanilayotgan video ma’lumotlar taxlili rentgenografiya asosida amalga oshiriladi. Video ma’lumotlardan statistik yondashuv asosida axborot olishning turli usullarini o‘z ichiga timsollarni tanish sohasi deyiladi.

1.2.4.Mashina ko‘rishining asoslari


Mashina ko‘rishi texnologiyasida tasvirlarga ishlov berishning quyidagi usullari qo‘llaniladi:

- Piksellarni hisoblash – yorqin va qorong‘i piksellar soni hisoblanadi, natijada tasvir haqida zarur xulosalar chiqariladi.
- Bog‘liq sohalarni ajratish usuli yordamida tasvir geometrik, mantiqiy, topologik va h.k. ma’nolarda tahlil qilinadi.
- Gistogramma qurish. Bu usul asosida tasvirning yorqinligini normallashtirish masalasi hal qilinadi.

Segmentlashtirish detallarni topish va sanash uchun qo‘llaniladi. Tasvirni segmentlashtirish deganda tasvirni biror belgiga nisbatan o‘xhash bo‘lmagan soxalarga ajratish tushuniladi. Mashina ko‘rish texnologiyasi quyidagi masalalarni echishda keng qo‘llaniladi:

- Shtrix kodlarni o‘qish.
- Belgilarni optik tanish usuli. Tekstlarni seriyali nomerlarni o‘qishda qo‘llaniladi.
- O‘lchash-obyektlar o‘lchamlarini millimetrlar yoki dyuymlarda o‘lchash.
- Shablonlarni solishtirish-konkret modellarni qidirish, tanlash yoki xisoblash.
- Obyeklarning nuqtaviy xususiyatlarini taqqoslash.

Mashina ko‘rishi tizimining strukturasi quyida keltirilgan:



1.2–rasm. Mashina ko‘rishi tizimining tashkil etuvchilari

Mashina ko‘rishining tipik tizimi ob’ekt tasvirni shakllantirish va yoritishga imkon beruvchi bir yoki birnechta videokameralar (oq-qora yoki rangli), kiritish-chiqaresh qurilmalari yoki aloqa kanallarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, mashina ko‘rishi tizimi tasvirlarga ishlov beruvchi maxsus dasturiy ta’mintoni o‘z ichiga oladi.

Kameradan olingan tasvir kadrlarni ushlagich yoki kompyuter xotirasiga yuboriladi. Kadrlarni ushlagichning vazifasi kameradan olingan ma’lumotlarni (tasvirlarni) raqamli formatga o‘tkazish va tasvirni (ikki o‘lchovli sonlar massivi) kompyuter xotirasiga kompyuter ko‘rishi dasturiy ta’mintoni vositasida ishlov berishga qulay qilib joylashtirishdan iborat. Dasturiy vosita tasvirdagi xalaqitlarni yo‘qotishdan tortib, to berilgan mezonlar bo‘yicha detallarni yorug‘li yoki yorug‘siz deb topishgacha bo‘lgan bosqichlarni bajaradi. Kompyuter ko‘rishi va mashina ko‘rishi o‘zaro farqlanadi. Mashina ko‘rishi ishlab chiqaresh masalalarini echishga yo‘naltirilgan injenerlik yo‘nalishi bo‘lib xisoblanadi. Kompyuter ko‘rishi esa tadqiqotlar olib borishning kengroq, umumiyoq vositasidir.

1.2.5.Kompyuter ko‘rishi tizimi

Kompyuter ko‘rishi tizimini joriy qilish uchun qo‘llanilish soxasiga, apparat platformasiga va samaradorligi bo‘yicha talablarga bog‘liq. Quyida kompyuter ko‘rishi tizimiga xos asosiy funksiyalarini ko‘rib chiqamiz.

- **Tasvirni olish:** ob’ektlarning raqamli tasviri bir yoki birnechta tasvir datchiklaridan aniqlanadi. Kompyuter ko‘rishi tizimi yorug‘likka ta’sirchan datchiklardan tashqari, o‘z ichiga masofa datchiklari, radarlar, ultra tovushli kameralar va x.k.larni oladi. Datchik tipiga qarab olinadiganma’lumotlar 2 – yoki 3 – o‘lchamli tasvirlar yoki tasvirlar ketma-ketligi bo‘lishlari mumkin. Piksellar qiymatlari odatda yorqinlik intensivligining bir yoki birnechta spektral doirasiga mos keladi, lekin elektromagnit to‘lqinlariga xos chuqurlik, yutilish yoki aks ettirilishi kabi fizik o‘lchamlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

- **Tasvirlarga dastlabki ishlov berish:** kompyuter ko‘rishi usullarini video ma’lumotlardagi ma’lum miqdor axborot olishga qo‘llashdan oldin, videoma’lumotlardagi quyidagi talablarga ko‘ra ishlov beriladi:
 - Tasvir koordinata tizimini tanlashning to‘g‘riligini tekshirish uchun qayta tanlanma olish.
 - Datchiklardan kelayotgan xalaqitlarni yo‘qotish.
 - Kerakli ma’lumotni topish uchun tasvir kontrastliligin oshirish.
 - Tasvirlardagi tuzilmalarni yaxshi ajratish uchun masshtablashtirish.
 - Detallarni ajratish: videoma’lumotlardan turli murakkablik darajasidagi detallar ajratiladi.

Bunday detallarga tipik misollar:

- chiziqlar, chegaralar va bo‘laklar.
- qiziqish uyg‘otuvchi lokal nuqtalar – burchaklar, nuqtalar. Murakkabroq detallar tuzilmaga, formaga yoki xarakatga tegishli bo‘lishi mumkin.

- **Segmentlashtirish:** tasvirlar yoki videoma’lumotlarga ishlov berishning ma’lum bosqichida tasvirning qaysi nuqtalari va qismlari ishlov berishning keyingi bosqichida muhimligi haqida yechim qabul qilinadi. Segmentlashtirish deganda tasvirni ma’lum ma’noda “birjinsli” qismlarga ajratish tushuniladi.

Misollar:

- aniq nuqtalar to‘plashni ajratish.
- tasvirning kerakli ob’ektni o‘z ichiga olgan bir yoki bir nechta qismlarni segmentlashtirish.

- **Yuqori darajali ishlov berish:** bunda kiruvchi ma’lumotlar hajmi unga katta bo‘lmasligi mumkin, masalan, aniq bir ob’ektni o‘z ichiga olgan tasvir qismiga tegishli nuqtalar soni yoki tasvir qismi.

Misollar:

- obyektga xos parametrlar, masalan, joylashuvi va o‘lchamlarni boholash;
- topilgan ob’ektni turli kategoriylar asosida sinflashtirish.

2-bob. Matlab tizimining Image Processing Toolbox dasturiy muhitida tasvirlarga raqamli ishlov berish

2.1.Tasvirlar tiplari va fayllari bilan ishlash

Tasvir tiplari

Tasvir saqlanish usuli bo'yicha:

- Vektorli – tasvir formallashtiriluvchi grafik primitivlar(to'g'ri chiziq, eksi chiziq, o'qlar, yoyslar, aylana, ellips, uch o'lchamli obektlar, matn va boshqalar) jamlanmasi sifatida tasvirlanadi;
- Rastrli –tasvir har bir elementi bir qancha ranglarni tasvirlovchi ikki o'lchamli massiv ko'rinishida tasvirlanadi.

Rastrli tasvir elementlari piksel(pixel, picture element – tasvir elementi) yoki nuqta deb nomlanadi.

Xotira hajmi baytda o'lchanadi, rastrli tasvirni saqlash kerak bo'lgan holatda quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$V = (c \cdot r \cdot d)/8$$

Bu erda , c – ustunlar soni, r – satrlar soni, d – rang chuqurligi(bit/piksel).

Tasvirning quyidagi tiplari mavjud:

- Binar – (black and white) piksellar faqatgina 0 va 1 (qora va oq rang) qiymatlarini qabul qilishi mumkin.
- Yarim rangli(kulrang yoki kulrangga yaqin tasvirlar – intensity, grayscale) – piksel minimaldan maksimal intensivlik(kuchli)gacha oraliqdagi ixtiyoriy rangning intensiv qiymatini olishi mumkin;
- Ranglar jilosi(indexed) – piksel qiymati rangli piksellarning tasviri ba'zi rangli tizim(ranglar jilosi)larni o'z ichiga oluvchi ranglar xaritasi(colormap) kataklarini ko'rsatuvchi hisoblanadi.
- Rangli yoki to'liq rangli(truecolor, rgb) – rangli tashkil etuvchilarning intensivligi xaqida axborotni bilvosita saqlovchi piksellar, tasvirlar.

Tasvir piksellari double va uint8 formatdagi massivda berilgan bo'lsa, 2.1 jadvaldagi talablarga javob berishi kerak.

Tasvir piksellari oralig'inining ko'rinishi

2.1-jadval

Tasvir tiplari	Double	uint8
Binar	0 va 1 qiymat	0 va 1 qiymat
Yarim rangli	[0,1] oraliq qiymat	[0,255] oraliq qiymat
Ranglar jilosi	[1,kamalak o'lchami] oraliq qiymat. 1 qiymati kamalakning birinchi ustunni ko'rsatadi	[0,255] oraliq qiymat. 0 qiymati kamalakning birinchi ustunni ko'rsatadi
Rangli yoki to'liq rangli	[0,1] oraliq qiymat	[0,255] oraliq qiymat

Yarim rangli va binar tasvirlar ikki o'lchamli massiv ko'rinishida saqlanadi.

I tasvir pikseli qiymatiga kiritish uchun r ustun va c satrni ko'rsatish kerak: I(r,c).

18	20	37	0
24	29	40	8
17	0	38	0
3	60	54	3
3	65	65	9
9	3	10	7

To'liq rangli tasvir R, G, B intensivlik qiymatini o'lchashda uch o'lchamli massiv ko'rinishida saqlanadi. Tasvir pikselini o'z ichiga oluvchi intensivlik qiymati I uchun kirishda satrni r va ustunni c deb ko'rsatish kerak va bunda R kanal uchun 1, G kanal uchun 2, B kanal uchun esa 3 nomerdan iborat. Masalan, I(r,c,1) qizil rangdan iborat qiymat olish imkonini beradi.

Ranglar jilosi tasvir 2 o'lchamli indeksli massiv ko'rinishida saqlanadi. Xar bir ranglar jilosi tasvir uchun 2 o'lchamli kamalak massivi mavjud.

2.1-rasm

Kamalak massivi doimo double tipini oladi va uning 3 ta ustuni R,G,B intensivlikka ajratilgan. Ranglar jilosi tasvirga misol qilib, ma'lumotlarni taqdim etishda uint8 formatidan foydalilanildi(1.1 rasm).

Qabul qilingan belgilashlar.

Turli xil tasvirlar uchun berilgan funksiyalarda va misollarda quyidagi belgilashlar keltirilgan:

- I-yarim rangli; X-ranglar jilosi; RGB-to'liq rangli; BW-binari;
- S-ixtiyoriy tipdagi boshlang'ich tasvir uchun; D-natija tasvir.

“Ko‘p nuqta”(...) simvoli funksiyada kiruvchi va chiquvchi parametrlarning avval erilganligini bildiradi.

MatLab tizimida tasvirlarni qayta ishlash funksiyasi Image Processing Toolboxes(IPT) paketida joylashadi.

Tasvirlar fayllari bilan ishslash

Tasvir haqidagi axborot olish funksiyasi: *imfinfo*

Sintaksis *info=imfinfo(<fayl nomi>)*

Info strukturasida tasvir va uni <fayl nomi> nomli faylda saqlash yo‘li haqidagi axborot qaytariladi; nom faylga bo‘lgan yo‘lni va uning nomini hamda kengaytmasini beradi, masalan, ‘C:\Users\ Documents\MATLAB\Fruit_04.jpg’.

MatLab tizimi qo‘llovchi grafik formatdagi fayllar 1.2 jadvalda keltirilgan.

1.2. jadval. Tasvir formatlar fayli.

Fayl formati	Format nomlanishi
‘bmp’	Windows Bitmap(BMP)
‘tif’/ ‘tiff’	Tag Image File Format(TIFF)
‘jpg’/‘jpeg’	Joint Photographic Experts Group(JPEG)

Info strukturasida tasvir haqidagi axborot va uni faylda saqlash yo‘li qaytariladi. Turli formatdagi fayllar uchun struktura xam bir biridan farq qiladi.

Umumiy xolda barcha formatlar uchun strukturaning birinchi 9 ta maydoni fayl formatini, tipini va tasvir o‘lchamini aniqlaydi, 1.3 jadvalda keltirilgan.


1.3-jadval. info strukturasining birinchi 9 ta maydoni.

Maydon nomi	Ma’lumotlar tipi	Mazmuni
<i>Filename</i>	Qator	Fayl nomi, agar fayl joriy direktoriyada joylashgan bo‘lsa yoki faylga to‘liq yo‘l ko‘rsatilgan bo‘lsa
<i>FileModDate</i>	Qator	Faylning oxirigi o‘zgartirish kiritilgan sanasi va vaqtি
<i>FileSize</i>	Raqam	Baytlarda fay razmeri
<i>Format</i>	Qator	Fayl formati
<i>FormatVersion</i>	Qator yoki raqam	Format versiyasi
<i>Width</i>	Raqam	Pikselda tasvir kengligi
<i>Height</i>	Raqam	Pikselda tasvir balandligi
<i>BitDepth</i>	Raqam	Pikseldagi bitlarda tasvirning rang chuqurligi
<i>ColorType</i>	Qator	Tasvir tipi: ‘truecolor’ yoki ‘RGB’-to‘liq rangli tasvirlar uchun; ‘grayscale’-yarim rangli tasvirlar uchun; ‘indexed’-ranglar jilosi tasvirlar uchun

TIFF va *HDF* formatdagi fayllar bir qancha tasvirni saqlashi mumkin. Bu holda info struktura massivi bo‘lib hisoblanadi.

Masala1. S diskdagi faylda saqlanuvchi tasvir haqida ma’lumot olish:

```
>> info=imfinfo('ngc6543a.jpg')
```



2.2-rasm. Fayldan tasvirni o‘qib olish


Fayldan tasvirni o‘qib olish funksiyasi:imread

Sintaksis `D=imread(<fayl nomi>)` - <fayl nomi> fayldan ranglar jilosi bo‘lмаган tasvirni o‘qidi va uni D massivga joylashtiradi, <fayl nomi> faylga borish yo‘lini ko‘rsatadi, masalan, ‘c:\Image\Athena.bmp’.

`[X,map]=imread(<fayl nomi>)` -<fayl nomi> fayldan X ranglar jilosi tasvirni map kamalagi bilan o‘qib oladi.

Fayldan o‘qib olingan tasvir ma’lumotlarni tasvirlovchi uint8 formatiga ega bўллади.

Masala2. forest.tif fayldan ranglar jilosi tasvirni o‘qish:
`>>`
`[X,map] = imread('forest.tif');`



2.3-rasm. Kirish tasviri

Faylga tasvir yozish funksiyasi: *imwrite*

Sintaksis

imwrite(S,<fayl nomi>) –binar, yarim rangli yoki to‘liq rangli S tasvirni <fayl nomi> nomi bilan faylga yozish.

imwrite(X,map,<fayl nomi>) – map ranglar jilosidagi X ranglar jilosi tasvirni <fayl nomi> nomi bilan faylga yozish.

Tasvirni ekranga chiqarish

Ekranga chiqarish funksiyasi: *imshow*

Sintaksis

imshow(S) – ranglar jilosi bo‘lmagan tasvirni chiqarish.

imshow(I,n) – yarim rangli I tasvirni chiqarish, n=256.

imshow(I,[low high]) – kontrastli(qarama-qarshilikdagi) yarim rangli tasvirni chiqarish.


imshow(X,map) - ranglar jilosi X tasvirni chiqarish, map-kamalak.

imshow(<fayl nomi>) – diskdan tasvirni chiqarish.

imshow(I,[low high]) funksiya yarim rangli I tasvirni chiqaradi, qo‘sishimcha tarzda chiquvchi tasvirni kontrastlaydi.Piksellar yorqinligida qora rangni *low* kam/tenglik, oq *high* ko‘p/tenglikka ega. Barcha kulrang bosqichlar tenglashuvi

low dan *high* gacha. Agar 2-parametr sifatida bo'sh massivni[] ko'rsatsak, u holda *low==min(I(:))*, *high==max(I(:))* bo'ladi.

Masala3. Photo.jpg fayldan tasvirni o'qib, ekranga chiqarish:
`>>imshow(A);`



2.4-rasm. Photo.jpg tasvirni namoyish qilish

Bir oynada bir necha tasvirni chiqarish

Bir necha tasvirni bir oynada chiqarish uchun subplot bilan birga subimage ham ishlatalidi:

Sintaksis

subimage(S) – grafik oynaga binar, yarim rangli yoki to'liq rangli tasvirni chiqarish.

subimage(X,map) – grafik oynaga ranglar jilosi X tasvirni chiqarish, map-ranglar jilosi.


Masalan, *forest.tif* fayldan ranglar jilosi tasvirini o'qib, bir oynada bir necha tasvirni ekranga chiqarish:

```
>>load trees
>>[X2,map2] = imread('forest.tif');
>>subplot(1,2,1), subimage(X,map)
>>subplot(1,2,2), subimage(X2,map2)
```

```

>> load trees
>> [X2,map2] = imread('forest.tif');
>> subplot(1,2,1), subimage(X,map)
>> subplot(1,2,2), subimage(X2,map2)

```



2.5-rasm.Bir oynada bir nechta tasvirni namoyish qilish

2.2.Ma'lumotlar sinflari va tasvirlar tiplarini o'zgartirish

Tasvirni ko'rsatuvchi ma'lumotlar sinfi

Tasvirning massiv elementini ko'rsatuvchi 2ta asosiy ma'lumotlar(format) sinfi mavjud:

- *double* – aniq ikkilikdagi mavjud raqam ko'rinishida; shu formatning har bir elementi 8 bayt xotirani egallaydi;
- *uint8* – 8 bit bo'lgan ishorasiz butun raqam pikselini ko'rsatadi, $[0,255]$ diapazonga ega.
- *uint16* – 16 bit bo'lgan ishorasiz butun raqam pikselini ko'rsatadi, $[0,2^{16}-1]$ diapazonga ega.

Tasvirni *double* formatida ifodalash uchun *im2double* funksiyasidan foydalilanildi.

Sintaksis

D=im2double(S) – binar, yarim rangli yoki to'liq rangli S tasvirni double formatida tasvirlaydi va piksellar qiymatini $[0,1]$ diapazonda oladi.

$X_D=im2double(X_S, \text{'indexed'})$ – ranglar jilosi X_S tasvirni double formatida tasvirlaydi.

$mat2gray$ funksiyasi ixtiyoriy double formatdagি S massivni normallashtirilgan D ko‘rinishida tasvirlashga yordam beradi. D tasvir 0(oq) dan 1(qora) gacha intervaldagи piksel qiymatiga ega.

Sintaksis

$D=mat2gray(S)$

Tasvirni uint8 formatida ifodalash uchun im2uint8 funksiyasidan foydalilanildi.

Sintaksis:

$D=im2uint8(S)$ – binar, yarim rangli yoki to‘liq rangli S tasvirni uint8 formatida tasvirlaydi va piksellar qiymatini [0,1] diapazondagi butun manfiy bo‘lmagan raqamlarni oladi.

$X_D=im2double(X_S, \text{'indexed'})$ – ranglar jilosi X_S tasvirni uint8 formatida tasvirlaydi.

Tasvir tiplarini almashtirish.

Tasvirlarni bir tipdan ikkinchisiga almashtirish usullarining quyidagilari mavjud:

$I=rgb2gray(RGB)$ – to‘liq rangli tasvirni yarim rangli tasvirga almashtirish;

$I=ind2gray(X,map)$ - ranglar jilosi tasvirni yarim rangli tasvirga almashtirish;

$[X,map]=gray2ind(I,n)$ – yarim rangli tasvirni ranglar jilosi tasvirga almashtirish, n=64;

$RGB=ind2rgb(X,map)$ – ranglar jilosi tasvirni to‘liq rangli tasvirga almashtirish;

$[X,map]=rgb2ind(RGB)$ - to‘liq rangli tasvirni ranglar jilosi tasvirga almashtirish;

Masala5. 'forest.tif' fayldan o‘qilgan ranglar jilosi tasvirni to‘liq rangli tasvirga almashtirish va uni bir oynada gorizontal ko‘rinishda chiqarish.

$>> [X,map] = imread('forest.tif');$


```

>> Xd=im2double(X,'indexed');

>> I=ind2gray(X,map);

>> figure, subplot(1,2,1), subimage(X,map); subplot(1,2,2), subimage(I);

```



2.6-rasm.Rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish

Mustaqil yechish uchun vazifalar

1. Ma'lumotlar bazasidagi *jpg*, *tif* fformatli fayllardagi tasvirlar haqida axborot olish.
2. *jpg* formatli fayldan tasvirni o'qib olish, uni a)yarim rangli b)ranglar jilosi tasvirga almashtirish. YArim rangli tasvirni ekranga chiqarish, shu bilan birga kontrastlash, bunda piksellar yorqinligi 0.2 dan kichik yoki teng bo'lgan qora rangda tasvirlansin, piksellar yorqinligi 0.8 dan katta yoki teng bo'lgan oq rangda tasvirlansin.
3. To'liq rangli va yarim rangli tasvirlar pikselini *double* formatiga almashtirish.
4. To'liq rangli va yarim rangli tasvirlarni vertikal ko'rinishda bitta oynaga chiqarish.
5. *jpg* fayldagi tasvirni o'qib olib, oq-qora tasvirga almashtirish va ekranga chiqarish.

6. *jpg* formatli tasvir yorqinligini histogrammasini xosil qiling va histeq funksiyasidan foydalanib tasvir yorqinligining tekis taqsimoti histogrammasini tuzing .


1. Savollar

1. Tasvir piksellarining qanday ma'lumotlar(formatlar) sinfi mavjud?
2. Rastrli tasvirlarning qaysi tiplari *IPT* paketida ishlataladi?
3. Qaysi funksiya yordamida tasvirning o'lchami va tipi haqidagi axborotni olish mumkin?
4. Qaysi formatdagi grafik fayllar bilan *MatLab* tizimida ishlash mumkin?
5. Qaysi funksiyalar orqali tasvirni faydan o'qish va faylga yozish mumkin?
6. *imshow* ning qaysi argumenti orqali yarim rangli tasvirni ekranga chiqarayotganda uning kotrastligini o'zgartirishimiz mumkin?
7. Tasvirning tipini almashtirish bo'yicha qanday funksiyalarni bilasiz?
8. Tasvir yorqinligini sozlashning qanday usullarini bilasiz?

3-bob.Tasvirlarni diskretlash va kvantlash

3.1.Diskretlash jarayoni va tasvirlarni kvantlashtirish.

$f(x,y)$ tasvir ikki fazoviy o‘zgaruvchilar x va y ning cheklangan to‘g‘riburchakli maydonda funksiyasi (3.1-rasm).



3

.1-rasm.Tasvir maydonini diskretlash

Fazoviy o‘zgaruvchi x diskretlash qadami T_1 bilan beriladi , o‘zgaruvchi $y-T_2$. X o‘qida bir-biridan T_1 masofada joylashgan videodatchiklar o‘rnatilgan. Bunday videodatchiklar to‘rtburchak qismlar bo‘ylab o‘rnatilgan bo‘lsa, tasvir ikki o‘lchovli panjarada xosil bo‘ladi:

$$f(n_1 T_1, n_2 T_2) = f(x, y) \mid x = n_1 T_1, y = n_2 T_2;$$

$$f(n_1 T_1, n_2 T_2) = f(n_1, n_2).$$

Shunday qilib, tasvirni diskretlashda fazoviy o‘zgaruvchilar tanlab olinadi.Fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha tasvirni diskretlashda tanlangan belgilar asosida diskretlash qadami quyidagi formula bilan tanlanadi:

$$Mx = [2Lx / T_1], My = [2Ly / T_2].$$

Jadval elementlari, piksel deb nomlanadi . Diskretlash qadami T_1 , T_2 , etarlicha kichik tanlangan bo‘lishi kerak, namuna olish xatosi arzimas ekanligini va raqamli vakillik asosiy ma’lumotlarni saqlab qoladi. Jismoniy ko‘rish nuqtasi diskretlash qadamini tanlash tasvir fazoviy spektrining kengligiga aytiladi. Katta


spektr kengligi w, kichik diskretlash qadam T. Amaliy diskretlashda qidirmoq qoniqarli munosabatlar:

$$T <= 2\pi / w.$$

A-yorqinlik funksiyasi belgi turlarini belgilaydi $f(x, y)$. Boshlang‘ich qiymat tasvirlar yorqinligi oldindan belgilangan daraja bilan solishtirganda bo‘lgan (shkalali) va keyingi darajasiga yangi qiymati qabul qilgan.

2-vazifa . Img.jpg nomli tasvirni quantiz dan foydalanib kvantlang.

```
>> [S,map] = imread('img.jpg');
>> I = im2double(rgb2gray(S,map));
>> [M N] = size(I);
>> p = 0:0.3:1;
>> [IDX] = quantiz(I(:, ), p);
>> figure,imshow(I)
>> I1 = reshape(IDX,M,N);
>> figure,imshow(I1,[ ])
```




3.2-rasm.Tasvirni kvantlash

3-vazifa. Tasvirni kvantlash funksiyasini yarating:

1. Yangi M-fayl oching – File/New/M-file;
2. Diskretlash funksiyasi buyruqlarni kriting:

```
function kvant (I,p);
[M N] = size(I);
INDEX = quantiz(I(:,), p);
I1 = reshape(INDEX,M,N);
I2 = mat2gray(I1);
figure,imshow(I2);
title('kvant image');
```



3.3-rasm. Yaratilgan funksiyani yangi nom bilan fayl sifatida saqlash

3. SAVOLLAR

1. Signallarni qanday qilib diskretlash mumkin?
2. Diskretlash qadami o'lchamlarini qanday tanlanadi?
3. Signallarni qanday qilib kvantlash mumkin?
4. Quyidagi funksiyalarning vazifasi nima?
 - a) quantiz; b) blkproc?

4-bob.Tasvirlarda geometrik shakl almashtirishlar

4.1.Tasvirlarda geometrik shakl almashtirishlarni amalga oshirish funksiyalari

Geometrik o‘zgarishlar rasmdagi elementlar fazoviy joylashuvini o‘zgartiradi.

Tasvirlarda bo‘laklarni kesish imcrop funksiyasi.

Sintaksis:

$[D,rect] = imcrop (S)$ – palitrasiz tasvirlar uchun, sichqoncha bilan bo‘lak beriladi.

$[Xd,rect] = imcrop (Xs,map)$ – palitralik tasvirlar uchun , sichqoncha bilan bo‘lak beriladi.

$D = imcrop (S,rect)$ – rect vektori bilan bo‘lak beriladi.

$Xd = imcrop (Xs,map,rect)$ – rect vektori bilan bo‘lak beriladi.

$D = imcrop$ – ushbu grafik oynadagi rasmlar faoliyati funksiyasi.

$imcrop (S)$ – yangi grafik oynada S rasmni kesilgan bo‘lagini tasvirlaydi.


Kvadrat bo‘lakni belgilash uchun shift tugmasini bosgan xolda sichqoncha kursoni bilan belgiladi.

Rect vektori, aniqlovchi qismi, to‘rt elementdan tashkil to‘kan: [Xmin, Ymin, w, h], Xmin va Ymin – to‘rtburchakni tepa va chap burchaklari; w – kengligi; h – balandligi.

1-topshiriq.


Sichqoncha yordamida bo‘laklarga ajratish.

```
>>[S,map] = imread('getImage296.jpeg');
>>figure,imshow(S,map);
```



4.1-rasm. Kirish tasviri


$>> [A,rect] = imcrop(S,map);$ % sichqoncha ramkasi



4.2-rasm. Kirish tasvirining kerakli qismini belgilab olish

```
>>figure, imshow(A,map);
```

```
>>rect
```



4.3-rasm.Kirish tasvirining kerakli qismini ajratib olish dastur kodi


2-topshiriq .

rect vektori yordamida bo‘laklarga ajratish.

```
>>rect = [82.5100, 9.5100, 262.9800, 316.9800]; % bo‘lakni vazifasi malumoti
```

```
>>P = imcrop(S,map,rect);
```

```
>>figure,imshow(P,map);
```



4.4-rasm.Kirish tasvirining ajratib olingan qismi

4.2. Tasvirlar o‘lchamlarini o‘zgartirish imresize funksiyasi

Sintaksis:

$$D = \text{imresize}(S, m, method);$$

Agar m 0 dan 1 gacha diapazonga tegishli bo‘lsa, funksiya D rasmni S dan kichikroq yaratadi. Agar m 1 dan katta bo‘lsa D rasm S dan kattaroq bo‘ladi. O‘lchamlarni o‘zgartirish jarayonida intero‘lyasiya metodlaridan biri qo‘llaniladi va ular quyidagilar:

- ‘nearest’ – piksel qiymatlari yaqin bo‘lganda ishlatiladi;
- ‘bilinear’ – chiziqli yuza intero‘lyasiyalarida ishlatiladi;
- ‘bicubic’ – kubli yuza intero‘lyasiyalarida ishlatiladi.

3-topshiriq .

Oq-qora Tasvirlarni kattalashtirish

```
>> [S,map] = imread('lebyonok.jpg');
>> I = rgb2gray(S,map); % oq-qora rasmga o‘zgartirish
```

```

>>imshow(I)

>>figure,imshow(imresize(I,2)),title('nearest')

>>figure,imshow(imresize(I,2,'bilinear')),title('bilinear')

```



4.5-rasm.Kirish tasviri

```
>>figure,imshow(imresize(I,2,'bicubic')),title('bicubic')
```

4-topshiriq .


Oq-qora tasvirlarni kichiklashtirish

```

>>X1 = imresize(I,0.5);

>>figure,imshow(X1,[]);title('nearest');


```



4.6-rasm.Kirish tasvirini imresize funktsiyasi yordamida kichiklashtirish

```
>>X2 = imresize(I,0.5,'bilinear');
>>figure,imshow(X2,[]);title('bilinear')
>>X3 = imresize(I,0.5,'bicubic');
```

```
>>figure,imshow(X3,[]);title('bicubic')
```



4.7-rasm. Tasvirga `imresize(I,0.5,'bicubic')` funksiyasi yordamida ishlov berish

4.3.Tasvirlarni burish imrotate funksiyasi

Sintaksis:

$$D = \text{imrotate}(S, \text{angle}, \text{method})$$


S Tasvirni burishlar orqali D rasm hosil qilinadi va intero‘lyasiyani malum bir metodlaridan foylanadi. Burilish burchagi gradusda beriladi. Bu parametr musbat bo‘lganda burilish soat strelkasi yo‘nalishiga qarshi, manfiy bo‘lganda soat strelkasiga to‘gri yo‘nalgan bo‘ladi.

5-topshiriq .

Palitrali tasvirni soat strelkasi bo‘yicha 45 gradusga buring.


```
>>[D,map] = imread(c':\image\Chip.bmp');

>>figure,subplot(1,3,1),subimage(imrotate(D,45),map);
```




4.8-rasm.Tasvirga *imrotate* funksiyasi yordamida 45 gradusga burish

>> subplot(1,3,2), subimage(imrotate(D,135,'bilinear'),map);



4.9-rasm.Tasvirga *imrotate* funksiyasi yordamida 135 gradusga burish

>> subplot(1,3,2), subimage(imrotate(D,270,'bilinear'),map);



4.10-rasm.Tasvirga *imrotate* funksiyasi yordamida 270 gradusga burish

4.4.Tasvirlarda affin shakl almashtirishlar

Burishlar, rasmni o'lchamlarini o'zgartirishlar kabi geometrik o'zgartirishlar affin o'zgartirishlari asosida amalga oshiriladi. Affin o'zgartirishlarini matritsa ko'rinishida ham yozish mumkin:

$$[x \ y \ 1] = [w \ z \ 1] T [t_{11} \ t_{12} \ 0]$$

$$[x \ y \ 1] = [w \ z \ 1] T [t_{21} \ t_{22} \ 0].$$

$$[t_{31} \ t_{32} \ 0]$$

Ushbu formula bilan 3.1 jadvalda ko'rsatilgan burish, siqish va boshqa amallarni bajarish mumkin.

Affin o‘zgatirishlari tiplari 3.1-jadval

Tip	Affin matritsasi T	Koordinata tenglamasi
Kengaytirish	$ Sx \ 0 \ 0 $ $ 0 \ Sy \ 0 $ $ 0 \ 0 \ 1 $	$X=SxW$ $Y=SyZ$
Burish	$ \cos(a) \ \sin(a) \ 0 $ $ - \sin(a) \ \cos(a) \ 0 $ $ 0 \ 0 \ 1 $	$x=w \cos(a) - z \sin(a)$ $y=w \sin(a) + z \cos(a)$
Almashtirish (gorizontal)	$ 1 \ 0 \ 0 $ $ a \ 1 \ 0 $ $ 0 \ 0 \ 1 $	$x = w + az$ $y = z$
Almashtirish (vertikal)	$ 1 \ b \ 0 $ $ 0 \ 1 \ 0 $ $ 0 \ 0 \ 1 $	$x = w$ $y = bw + z$
Uzatish	$ 1 \ 0 \ 0 $ $ 0 \ 1 \ 0 $ $ Sx \ Sy \ 1 $	$X= W + Sx$ $Y= Z + Sy$

IPT paketida fazoviy o‘zgarishlar tform-struktura deb nomlangan ko‘rinishda beriladi. Topshiriq uchun struktura maketform funksiyasida ishlatalishi mumkin.

Sintaksis

tform = maketform(transtype, T);

transtype – o‘zgarish tipi; T – Affin o‘zgarishidagi matritsa topirig‘i.

3.2 jadvalida transtype tipidagi o‘zgarishlar qiymatlari ko‘rsatilgan.

3.2 -jadval .maketform funksiyasida o‘zgarishlar tiplari

O‘zgarishlar tiplari	Tavsif
Affine	Kengaytirish, burish, alishtirish, uzatish kombinatsiyalari. To‘g‘ri chiziqlar to‘g‘ri chiziqligicha va paralel chiziqlar paralleliga qoladi.
Box	Xoxlagan yuzaga kengaytirib va siqib uzatish mumkin
Composite	Fazoviy o‘zgarishlar oilasi, izchil qo‘llaniladi.
Custom	Fazoviy o‘zgarishlar, foydalanuvchi tomonidan beriladi, hisoblash uchun T va T-1 funksiyalarini belgilab oladi.
Projective	Affin o‘zgarishlaridek, to‘g‘ri chiziq to‘griligidan beriladi, faqat paralel chiziq ko‘rinishidan kesishish nuqtasi o‘chirilgan paralel bo‘lmagan ko‘rinishga o‘tadi.

Imtransform funksiyasini Affin funksiyalaridagi rasmlarda ishlatalishi.

Sintaksis

$$D = \text{imtransform}(I, tform, type, P)$$

I – olingan tasvir; tform -struktura fazoviy o‘zgarishi; type – pikselni qiymatini hisoblash uchun yaqin piksel interolyasiyasin aniqlash metodi. Quyidagi buyruqlardan birini tanlash mumkin: pnearestp , pbilinearp va pbicubicp. P – qopimcha parametrlar, masalan, parametr P = ‘FillValue’ olingan tasvirda piksellarda ushbu funksiya qo‘llanilganda ranglarni boshqadi.

$$>> D = \text{imtransform}(I, tform, 'FillValue', 0.5);$$


Shahmat doskasi tasvirida ba’zida bo‘ladigan o‘zgarishlarni namoyish etish uchun, checkerboard funksiyasi hosil qilinadi.

$$I = \text{checkerboard}(N, P, Q);$$

N parametri – piksellar soni, doska kataklari o‘lchamlarini aniqlash; P parametri vertikal kataklar sonini aniqlash (2P); Q parametri gorizontal kataklar sonini aniqlash (2Q). Agar P va Q parametrlarini pasaytirsa, sakkiz kataklili kvadrat shaklidagi vertikal va gorizontal tomonlari teng bo‘lgan doska xosil bo‘ladi.

```
>>I = checkerboard(120,4,4);
```

```
>>imshow(I);
```



4.10-rasm. *Imtransform* funksiyasini Affin funksiyalarida qo'llanilishi
6-topshiriq .


Affin o'zgarishlarini bajaring; tasvir sifatida shahmat doskasini oling. Buning uchun quyidagilarni bajaring.

1. Affin m -funksiyasini yaratish:

```
function affintr(I,T,type)
tform=maketform('affintr',T);
II = imtransform(I,tform);
figure, imshow(II)
title(type)
```

2. Test tasvirni yaratish:

```
>>I=checkerboard(40);
>>figure,imshow(I)
```



4.11-rasm. O'lchami uzgargan tasvirda *Imtransform* funksiyasini Affin funksiyalarida qo'llanilishi

3. ‘resize’ o‘zgartirishini bajarish:

```
>>T=[3 0 0;0 2 0;0 0 1]; type= ‘resize’;
>>affintr(I,T,type);
```

4. ‘Sdvig’ o‘zgartirishini bajarish:

```
>>T=[1 0 0;0 2 0;0 0 1];type= ‘Sdvig’;
>>affintr(I,T,type);
```

5. ‘Rotate’ o‘zgartirishini bajarish

```
>>T = [cos(pi/4) sin(pi/4) 0;-sin(pi/4) cos(pi/4) 0;0 0 1]; type= ‘Rotate’;
>>affintr(I,T,type);
```

6. ‘resize’, ‘sdvig’, ‘rotate’ o‘zgartirishlar kombinatsiyalarini bajarish:

```
>>Tscale = [1.5 0 0;0 2 0;0 0 1]; % kengaytirish
>>Trot = [cos(pi) sin(pi) 0;-sin(pi) cos(pi) 0;0 0 1] % burish
>>T1 = Tscale*Trot*Tshear;
>>tform=maketform(‘affline’,T1);type= ‘All’;
```

```
>>affintr(I,T1,type);
```

7. ‘uzatish’ o‘zgartirishini bajarish;

```
>>T = [1 0 0;0 1 0;50 50 1];
```

```
>>tform=maketform('affline',T);
```

```
>>I1 = imtransform(I,tform, 'Xdata',[1 320], 'YData',[1 320], 'FillValue',0.5);
```

```
>>figure,imshow(I1);
```

Indeksli massivlar asosida rasmlardagi opersiyalar.


Berilgan zarur tasvirni indeksli massiv ko‘rinishida berib, uni o‘lchamlarini xoxlagancha o‘zgaritish mumkin:

- bo‘lakni kesish – $I_c = I(Y:Ym, X:Xn)$;
- tasvirni vertikaliga oynada akslanishi – $I_y = I(\text{end}:-1:1,:)$;
- tasvirni gorizontaliga oynada akslanishi – $I_x = I(:,\text{end}:-1:1)$;
- tasvirni ikki yondan siqish – $I_d = I(1:2:\text{end}, 1:2:\text{end})$;

7-topshiriq .


Hi.jpg fayli bo‘lgan tasvirni oynada gorizontal aksllantiring va gorizontaliga tasvirni ikki yondan siqing.

```
>>[x,map]=imread('Hi.jpg');
>>I=im2double(ind2gray(x,map));
>>figure,imshow(I)
```




4.12-rasm. Siqilgan tasvir

```
>>Iy = I(:,end:-1:1);
>>figure, imshow(Iy)
```



4.12-rasm. Siqilgan tasvir (gorizontal natijasi)

```
>>Id = Iy(:,1:2:end);
>>figure, imshow(Id);
```



4.12-rasm. Siqilgan tasvir (vertikal natijasi)

2. Mustaqil ishslash uchun topshiriq

3.3 jadvalida tasvirlar o‘zgarishtirishlar uchun berilgan. Variantlarga bo‘lingan o‘zgartirishlar 3.4 jadvalida berilgan. 3.5 jadvalida esa Topshiriq variantlari berilgan. 3.5 jadvalda variantni asosiy nomerlari dumaloq qavslarni ichida berilgan, qopimcha malumotlar 3.4 jadvalda keltirilgan (3.3 jadvaldagi rasmlar nomerlari, burilish burchaklari qiymatlari va boshqalar).

3.3-jadval .Tasvir fayllari

Rasm Nomerlari	Tasvir fayllarini nomlanishi
1	Bike.bmp
2	Blaise.bmp
3	Clouds.bmp
4	Handshak.bmp
5	Technlgy.bmp
6	Saturn.bmp
7	Construc.bmp
8	Bigbird.bmp

3.4-jadval .O‘zgartirish variantlari

Varinat nomeri	Tasvirdagi o‘zgartirishlar
1	Tasvir faylidan malumot olish (rasm nomeri)
2	Tasvir faylini o‘qish (rasm nomeri)
3	Sichqoncha yordamida D bo‘lakni kvadrat shaklida belgilash
4	Bo‘lakni belgilash, kenglikni 1/3 qismi va balandlikni yuqori chap burchagi musbat kordinatalar bilan beriladi.
5	Sichqonchada S kvadrat bo‘lak bilan belgilagan xolda ushbu oynada belgilangan bo‘lak bilan almashtiriladi.
6	Bo‘lakni N marta kattalashtirish, quyidagi metodlardan foydalanish: a – ‘nearest’; b - ‘bilinear’; d – ‘bicubic’
7	Tasvirni N marta kattalashtirish, quyidagi metodlardan foydalanish: a – ‘nearest’; b - ‘bilinear’; d – ‘bicubic’
8	Tasvirni soat sterlkasiga to‘gri aylantirish ,quyidagi metodlardan foydalanish: a – ‘nearest’; b - ‘bilinear’; d – ‘bicubic’
9	Tasvirni soat strelkasiga qaramash qarshi yo‘nalishda aylantirish, quyidagi metodlardan foydalanish: a – ‘nearest’; b - ‘bilinear’; d – ‘bicubic’

10	Tasvirni N marta kichiklashtirish, metodlardan foydalangan xolda: a – ‘nearest’; b - ‘bilinear’; d – ‘bicubic’
11	Tasvirni vertikaliga va gorizontaliga (S_x, S_y) marta cho‘zish
12	Tasvirlarni vertikaliga va gorizontaliga (a,b) birlashtirish
13	Tasvirni vertikaliga va gorizontaliga (S_x, S_y) ko‘chirish
14	Berilgan tasvirni ekranga chiqarish
15	Bo‘lish natijalarini aloxida oynalarga chiqarish
16	Bo‘lish natijalarini bitta oynaga chiqarish

3.5 –jadval. Mustaqil ishlar variantlari

Topshiriq nomeri	3.4 jadvaldagi variantlar nomerlari
1	1(4);2(4);4,6(3)a;8(45)a;14;15
2	1(1);2(1);7(4)a;5,6(4)b;9(90)a;14;16
3	1(3);2(3);10(2)a;8(90)b;3;6(3)d;14;15
4	2(7);11(2,4);14;16
5	1(2);2(2);9(45)a;9(45)b;9(45)d;14;15
6	1(6);2(6);6(3)b;4;6(3)b;9(180);14;15
7	1(5);2(5);5;8(60)a;8(60)b;8(60)d;14;16
8	2(7);13(20,40);14;16
9	2(8);12(0.6,-0.6);14,16

3. Savollar

- imcrop funksiyasini bo‘laklarga qanday yo‘llar bilan ajratish mumkin.
- Razmer o‘zgartirish funksiyasi uchun qanday argumentlarni ishlatish kerak?
- Aylantirish funksiyasi uchun qanday argumentlardan foydalanish kerak?
- Affin matritsasi qanday beriladi?
- a) kengaytirish uchun; b)almashtirish uchun; c)burish uchun; d)uzatish uchun?
- Tasvirni oynaga akslantirish qanday amalga oshiriladi?
- Tasvirni ikki chetdan siqish qanday amalga oshiriladi.

5-bob.Tasvirlarni segmentlashtirish

Tasvirlarni segmentlashtirish bilan bog‘liq amallar, tasvirlarni qismlarga ajratuvchi funksiyalarni o‘rganish, hamda bu funksiyalarni ishlatish kabi mavzularni o‘z ichiga oladi.

Tasvirlar segmentatsiyasi bu tasvirni nuqtalar bo‘yicha o‘xshash xususiyatlari (yoki belgilar) bo‘yicha qismlarga bo‘lishni nazarda tutadi. Belgilar 2 turga bo‘linadi: tabiiy va sun’iy. Tabiiy belgilar tasvirni oddiy (vizual) analiz qilish orqali aniqlanadi, sun’iy belgilar esa maxsus hisoblashlar natijasida anilanadi. Tabiiy belgilarga misol sifatida tasvirdagi obyektning tuzilishi, teksturasi, yorug‘ligini olish mumkin. Sun’iy belgilarga misol sifatida yorug‘likning taqsimlanish histogrammasi, spektr va boshqalarni olish mumkin.

Tasvirni segmentatsiya qilish usullariga quyidagilar kiradi: yorug‘lik bo‘yicha segmentatsiya, ranglar koordinatasi bo‘yicha segmentatsiya, konturlar bo‘yicha segmentatsiya, tasvir tuzilishi bo‘yicha segmentatsiya.

5.1.Tasvirlarni segmentlashtirish usullari

5.1.1.Chegaralarni umumlashtirish usuli orqali segmentlashtirish

Tasvirni segmentatsiya qilishda chegaralarni umumlashtirish metodini qo‘llash mumkin – tasvir piksellari yoki chegaralarini oldindan belgilangan o‘sish tavsiflari bo‘yicha kattaroq ismlarga guruhlashtirish. Bunda “kristallizatsiya markazlari” olinadi, keyin ularga xususiyatlari yaqin bo‘lgan piksellar har bir “kristallizatsiya markaz”lariga umumlashtiriladi (misol uchun, maxsus diapazondagи yoruligi yoki rangi yain bo‘lgan piksellar). Quyida chegaralarni umumlashtiruvchi *regiongrow* funksiyasi keltirilgan:

$$[g, NR, SI, TI] = \text{regiongrow}(f, S, T),$$

bu erda **f** – segmentlanuvchi tasvir, **S** – massiv (**f** qiymatidagi o‘lchovlar bilan) yoki skalyar. Agar **S** – massiv bo‘lsa, bu erda “kristallizatsiya markazi” joylashgan pozitsiyalarda 1 ni qabul qiladi, olgan joylarda esa 0 ni qabul qiladi. Agar **S** skalyar birlik bo‘lsa, bunda “kristallizatsiya markazlari”ga aylanadigan

piksellar yorug‘ligi ko‘rsatiladi. Xuddi shunday, **T** massiv bo‘lishi mumkin, bunda uning elementlari **f** uchun chegaraviy qiymatlar bo‘lishi mumkin.

1-topshiriq. *regiongrow* funksiyasini yaratish.

```
function [g, NR, SI, TI] = regiongrow(f, S, T)
```

```
if numel(S) == 1
```

```
SI = f == S;
```

```
SI = S
```

```
else
```

```
SI = bwmorph(S, 'shrink', Inf);
```

```
J = find(SI);
```

```
S1 = f(J);
```

```
end
```

```
TI = false(size(f));
```

```
for K = 1:length(S1)
```

```
seedvalue = S1(K);
```

```
S = abs(f - seedvalue) <= T;
```

```
TI = TI / S;
```

```
end
```

```
[g, NR] = bwlabel(imreconstruct(SI, TI));
```

2-topshiriq. *regiongrow* funksiyasidan foydalangan holda, Finance.bmp faylida saqlanuvchi tasvirni chegaralarini umumlashtirish segmentatsiyasini amalga oshirish.

```
[x, map] = imread('c:\image\Finance.bmp');
```

```
I = im2double(ind2gray(x, map));
```

```
figure, imshow(I)
```

S = 0.9783; T = 0.0651; % bu qiymatlar eksperimental ravishda topiladi (tasvirdan olingan)

```
[g, NR, SI, TI] = regiongrow(I, S, T);
```

```
figure, imshow(TI)
```

Shuningdek segmentatsiya uchun qismlarga ajratish metodi ishlataladi. Bunday algoritmni amalga oshiruvchi Matlab funksiyalari, uyida keltirilgan.

5.1.2. Tasvirni qismlarga ajratish usuli asosida segmentlashtirish

Tasvirlar o‘zaro kesishmaydigan bloklarga ajratiladi va bu bloklar tavsiflarga ko‘ra o‘xshashlikka tekshiriladi.

Yarimtonlik tasvirlarni qismlarga ajratish usuli bilan segmentlashning *qtdecomp* funksiyasi

$A = \text{qtdecomp}(I, \text{threshold}, \text{mindim})$

qtdecomp funksiyasi yarimtonlik tasvirlar segmentatsiyasini qismlarga ajratish metodi orqali amalga oshiriladi. *qtdecomp* funksiyasida har bir blok bir xil o‘lchamlik 4 blokka ajratiladi. Algoritmning 1-qadamida butun tasvir bitta blok deb hisoblanadi. Qatorlar va ustunlari soni to bo‘lgan blokni 4 ta teng o‘lchamli bloklarga ajratib bo‘lmaydi va bunday blok eng kichik o‘lchovli blok hisoblanadi.

5.1.3. Segmentlashtirish natijalarini bloklarga almashtirish funksiyasi

Sintaksis.

$ID = \text{qtsetblk}(IS, A, \text{dim}, \text{vals})$

Bu funksiya *qtdecomp* funksiyasi orqali olingan segmentlash natijalaridan tanlangan yarimtonli tasvirning *dim* o‘lchamli bloklarini, *vals* massivi bloklariga almashtirgan holda yangi yarimtonli *ID* tasvir yaratadi. *A* parametrida segmentatsiya natijalarini kvadro-daraxt ko‘rinishida tasvirlovchi siyraklashgan massiv ko‘rsatiladi.

qtdecomp funksiyasining *qtgetblk* va *qtsetblk* funksiyalari bilan 8x8 pixels o‘lchamli yarimtonli tasvirda qanday ishlashini ko‘rib chiqamiz. Agar blokdagi piksellar yorug‘ligi tarqoqligi qiymati 10 yorug‘lik birligidan oshmasa, tasvir bloki bir turga mansub deb hisoblanadi. Blok uchun mumkin bo‘lgan eng kichik o‘lchamini o‘rnatamiz. Bizning holatda bu qiymat 2 ga teng.

O‘rtacha yorug‘lik qiymati 50 dan oshmaydi bloklar ob’ektga tegishli deb hisoblaymiz. Tanlangan tasvirni shunday o‘zgartirish kerakki, bunda ob’ektga

tegishli bloklar piksellariga 1 qiymati berilsa, a ob'ektga tegishli bo'limgan bloklar piksellariga 0 qiymati beriladi.

3-topshiriq. Katta bo'limgan matnli tasvirni qismlarga bo'lish metodi orqali segmentlash.

Berilgan tasvir:

```
>> I = [ 10 11 10 15 20 25 47 51  
        11 14 17 13 27 29 52 55  
        12 13 11 10 24 47 56 60  
        13 14 11 13 49 54 74 77  
        15 16 43 48 79 82 87 86  
        17 18 45 50 85 80 80 84  
        29 51 50 59 80 83 83 85  
        59 61 58 61 81 85 86 88 ];
```

qismlarga bo'lish metodi orqali segmentlash: eng kichik blok o'lchamlari 2 ga 2; blok agar uning chegaralarida yorug'ligi 10 birlikdan kam miqdorda o'zgarsa bir turga mansub hisoblanadi.

```
>> A = qtdecomp(I,10,2);
```

Vizual tahlilni avvaldan osonlashtirish uchun siyraklashtirilgan A matritsasini *full* funksiyasi yordamida oddiy M matritsasiga aylantiramiz.

```
>> M = full(A)
```

```
M =  
4 0 0 0 2 0 2 0  
0 0 0 0 0 0 0 0  
0 0 0 0 2 0 2 0  
0 0 0 0 0 0 0 0  
2 0 2 0 4 0 0 0  
0 0 0 0 0 0 0 0  
2 0 2 0 0 0 0 0  
0 0 0 0 0 0 0 0
```

```

Command Window
New to MATLAB? Watch this Video, see Demos, or read Getting Started.

>> I = [ 10 11 10 15 20 25 47 51
